

BANKLAR FAOLIYATIDA KREDIT RISKLARINI PASAYTIRISHDA MIJOZLARNING KREDITGA LAYOQATLILIGI VA UNI BELGILOVCHI MEZONLAR

Ashurov Asror Rahmatullayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

email: asror_ashurov@mail.ru

Kredit mexanizmining muhim elementlaridan biri bu – mijozning kreditga layoqatliligidir. Korxonalarning kreditga layoqatliligini hisobga olgan holda kredit berish, kreditni o'z vaqtida qaytarishning muhim shartidir. Bank va mijoz o'rtasida yuzaga keladigan kredit munosabatlarda bank tomonidan kredit mablag'larining mijozlarga shartnoma shartlari asosida o'z vaqtida etkazilishini ko'zda tutsa, mijoz tomonidan avvalo kredit olish va uni o'z vaqtida to'lashga layoqatli bo'lish hamda olingan kreditlarni o'z vaqtida to'lashni talab qiladi. Odatda bank va mijoz o'rtasidagi kredit munosabatlar bir tomondan, bankda kredit resurslarning mavjudligiga va ikkinchi tomondan, mijozning kreditni olishga layoqatli ekanligiga asoslanadi. Avvalo kreditga layoqatlilik tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari va ular bo'yicha bank tomonidan qabul qilingan qaror bankning mijozni kreditlashining asosini tashkil etadi.

Biz nazariy jihatdan kreditga layoqatlilik tushunchasini qaraydigan bo'lsak, iqtisodiy adabiyotlarda turli yondashuvlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, xorijiy davlat iqtisodchilari kreditga layoqatlilikni (**angl. creditability**) **yoki (credit standing), (credit rating)**¹ deb yuritishadi va u kreditni to'lay olish imkoniyati deb ta'riflansa, rossiyalik iqtisodchilar kreditga layoqatlilik jismoniy va yuridik shaxslarning berilgan kredit va uning foizlarini to'lay olishi deb ta'rif berishadi.² S.I. Ojegovning³ iqtisodiy so'zlar lug'atida kreditga layoqatlilik olgan

¹Dj. Blek. Общaya redaksiya: d.e.n. Osadchaya I.M Толковыу slovar. M.: INFRA M , Izdatelstvo Ves Mir . . . 2010. 153 b.

² Slovar biznes terminov. M.: Akademik.ru. 2011. 211b.

³ Толковыу slovar Ojegova. S.I. Ojegov, N.Yu. Shvedova. M.: Мыsl. 1992.



kreditini qaytarish qobiliyati deb keltirilgan. Bozor munosabatlari sharoitida xo'jalik sub'ektlarining pul mablag'lariga o'sib borayotgan ehtiyojini qondirishda bank kreditlarining roli va ahamiyati beqiyosdir. Bank kreditlari xo'jalik sub'ektlarining pul mablag'lariga bo'lgan vaqtinchalik ehtiyojlarini qoplash bilan birga, ularning ishlab chiqarish faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan uzilishlarning oldini oladi hamda faoliyat samaradorligini ta'minlashga zamin yaratadi. Iqtisodiy adabiyotlarda bu ko'rsatkichning mohiyati to'g'risida turli ta'riflarni uchratish mumkin. Ko'pgina mualliflar tomonidan kreditga layoqatlilikka, korxonalarning qarz majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajara olish imkoniyati sifatida ta'rif beriladi. Bizning fikrimizcha, bu ta'rif ko'proq korxonaning to'lovga layoqatliligiga berilgan ta'rifdir. Amaliyotda kreditga layoqatlilik ko'rsatkichi ko'proq bankdan qarz oluvchi korxona faoliyatini ifoda qiladi. Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini ikki tomonlama ko'rib chiqish mumkin:

- qarz oluvchi nuqtayi nazaridan kreditga layoqatlilik;
- kredit shartnomasini tuzish imkoniyati, olingan kreditlarni o'z vaqtida qaytara olish qobiliyatini ifodalasa;
- bank nuqtayi nazaridan - korxonaga beriladigan kreditning hajmini to'g'ri aniqlay olish mas'uliyatini bildiradi.

Ba'zi iqtisodchilar qarz oluvchining kreditga layoqatlilik ko'rsatkichini baholashda birinchi o'ringa korxonaning daromad olish imkoniyatini qo'yishadi. Bizning fikrimizcha, daromad olish - korxonaning ishlab chiqarish yoki boshqa faoliyat turining natijasi hisoblanib, shu natijaga erishish maqsadida korxona kreditga muhtojlik sezadi. Agar qarzlarni to'lash miqyosida qaraydigan bo'lsak, kreditga layoqatlilikka nisbatan to'lovga layoqatlilik tushunchasi kengroqdir. Chunki to'lovga layoqatlilik jismoniy va huquqiy shaxslarning barcha qarz va majburiyatlarini o'z vaqtida to'lay olish imkoniyatini ifodalaydi. Kreditga layoqatlilik to'lovga layoqatlilikdan farq qilib, ssuda bo'yicha qarzlarni o'z vaqtida to'lash imkoniyatini ko'rsatadi. Undan tashqari kreditga layoqatlilik to'lovga layoqatlilikdan to'lash manbalari bilan ham farq qiladi.



“Kreditga layoqatlilik” mijozning kreditga olish va uni qaytarib foizi bilan to‘lay olishiga layoqatli yoki layoqatsiz ekanligini baholaydi. “Kredit qobiliyati” – “kredit potentsial”- bu asosan banklarga tegishli bo‘lib bankning kredit bera olish qobiliyati, imkoniyati qay darajada ekanligini ifodalaydi. Mabodo, biz “qobiliyat” so‘zini mijozga nisbatan qo‘llaydigan bo‘lsak unda mijozning “kreditni to‘lay olish qobiliyati yoki imkoniyati” deb ifodalashimiz lozim bo‘ladi. Kredit qobiliyati esa odatda bankga nisbatan - bankning kredit bera olish qobiliyati degan ma’noda qo‘llaniladi. Jahon amaliyoti, MDH davlatlari va respublikamiz banklari amaliyotida ham mijozlarni kreditlashda ularning kredit qobiliyati emas, balki kreditga layoqatliligi tahlil etiladi. Shu jihatdan ba’zi tadqiqodchilarning noto‘g‘ri talqinlari iqtisodiy fanda ba’zi kategoriyalarning mohiyatini noto‘g‘ri tushunishga olib keladi. O‘z navbatida mijozning kreditga layoqatliligini noto‘g‘ri talqin etish kreditlar bilan bog‘liq risklarni aniqlash, ularni to‘g‘ri baholash orqali yo‘qotishlar ehtimolini kamaytirish va kreditlarning o‘z vaqtida bankga qaytishini ta’minlashda ham ba’zi muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. YUqoridagilardan kelib chiqib ta’kidlamoqchimizki bizning fikrimizcha “kreditga layoqatlilik” tushunchasiga eng to‘g‘ri ta’rif prof. SH.Z. Abdullaeva tomonidan keltirilgan. prof. SH.Z. Abdullaevaning fikricha, “kreditga layoqatlilik – bu mijozning moliyaviy faoliyatiga har tomonlama berilgan baho bo‘lib, u qarz oluvchining so‘ralayotgan kreditni (asosiy qarz summasi va u bo‘yicha foidlarni) o‘z vaqtida qaytarish va boshqa qarz majburiyatlarini to‘lay olish qobiliyatini ko‘rsatadi”⁴. Umumiy holda esa mijozning kreditga layoqatliligi deganda qarz oluvchining olgan qarzini (asosiy qarzi va uning foizini) to‘la va o‘z vaqtida qaytaraolish imkoniyatini tushunamiz. Endi amaliyotga e’tibor qaratadigan bo‘lsak ham mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan mijozlarning kreditga qobiliyati emas, balki kreditga layoqatliligi baholanada va unda aksariyat hollarda mijoz balansining likvidliligi, majburiyatlarini o‘z mablag‘lari hisobidan qoplay olish imkoniyati, aylanma aktivlarning samaradorlik ko‘rsatkichlariga e’tibor qaratiladi.

⁴ Abdullaeva Sh.Z. Kredit va kreditlash amaliyoti T.: IQTISOD-MOLIYA 2017. 78 b.



Jahon va mamlakatimiz bank amaliyotida mijozning kreditga layoqatliligini belgilovchi quyidagi mezonlar o'rnatilgan:

- mijoz xarakteri (fe'l-atvori);
- mablag'ni qarz olish qobiliyati;
- joriy faoliyat davomida qarzni uzish uchun mablag' ishlab topish qobiliyati;
- mijoz kapitali;
- kreditning ta'minlanganligi;
- kredit operatsiyasini bajarish chog'idagi sharoitlar;
- qarz oluvchi faoliyatining qonuniy jihatlarini nazorat qilish darajasi va boshqalar.

Mijozning fe'l-atvori deganda uning yuridik shaxs, yoxud menejer sifatida o'zini ko'rsataolish, qarzni o'z vaqtida qoplashdagi mas'uliyati, kreditni olishdan maqsad va uning bank kredit siyosatiga mosligini aniq bilishi kabilar tushuniladi. Yuridik shaxs sifatida o'zini ko'rsata olishi esa mijozning yuritayotgan faoliyatini mukammal bilishi, o'z korxonasidagi iqtisodiy ko'rsatkichlarning mazkur tarmoqning o'rtacha ko'rsatkichlariga mos kelishligi, ishbilarmonlar (ishlab chiqaruvchilar va etkazib beruvchilar, kreditorlar) doirasidagi bilimdonligi kabilar bilan belgilanadi. Menejer sifatida o'zini ko'rsata olishi mijozning quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

- o'z kasbini mukammal bilishi (ma'lumoti, ish tajribasi);
- axloqi;
- shaxsiy va oilaviy moliyaviy holati;
- bank bilan rahbarlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlardagi o'rni.
- Mijozning qarz olish qobiliyati uning kredit olish bo'yicha buyurtmaga va kredit shartnomasiga imzo chekish huquqiga yoki vakolatiga ega ekanligi, o'zaro kelishuv va bitimlarni tuzish yoshiga etganligida namoyon bo'ladi.
- Mijoz kapitalini baholashda quyidagi ikkita mezonga e'tibor beriladi:
- ustav fondining minimal darajasiga (aksioner kapitaliga) nisbatan qo'yiladigan talabga mijoz kapitalining javob bera olishi, uning etarliligi va moliyaviy leveraj koeffitsientlari darajalari;



- kreditlanayotgan operatsiyaga o'z kapitalini qo'yish darajasi. Bu ko'rsatkich bank bilan qarz oluvchi o'rtasida riskning taqsimoti to'g'risida dalolat beradi.

O'z kapital qanchalik ko'p qo'yilsa, shunchalik qarz oluvchini kredit riski omillarini sinchkovlik bilan kuzatishga majbur etadi. Nihoyat, mijozning kreditga layoqatliligini belgilovchi so'nggi mezon, ya'ni qarz oluvchi faoliyatining qonuniy jihatlarini nazorat qilish darajasi bank xodimidan:

- ✚ qarz oluvchining kredit olishi va kredit tadbirlarini amalga oshirishi uchun huquqiy va me'yoriy asoslari mavjudligi;
- ✚ qonunchilikda kutiladigan ehtimoliy o'zgarishlar (masalan, soliqda) qarz oluvchi faoliyati natijalariga ta'sir darajasi;
- ✚ qarz oluvchining ssuda, kredit olishi bo'yicha tuzgan biznes-rejasida, shartnomada ko'rsatgan talabnomasining kredit siyosatiga mos kelishi va boshqalarga javob olishi lozim.

Qayd etilgan mezonlar mijozning kreditga layoqatliligi va uning mohiyatini baholash usullarini aniqlashga yordam beradi. Bunday usullar qatoriga quyidagilar kiradi:

- ✚ riskni baholash;
- ✚ menejmentni baholash;
- ✚ moliyaviy koeffitsientlar asosida mijozning moliyaviy barqarorlik darajasini baholash;
- ✚ pul oqimini tahlil qilish;
- ✚ mijoz to'g'risida ma'lumotlar yig'ish;
- ✚ mijozning ish faoliyatini kuzatish va h.k.

1-jadval.

Tijorat banklari kredit qo'yilmalarining tarmoqlar bo'yicha ulushi⁵

Ko'rsatkichlar nomi	01.01.2025-y.		01.01.2026-y.		O'zgarishi, foizda
	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda	

⁵ <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/3326200/>

Jami kreditlar	533 121	100%	604 002	100%	13%
Sanoat	153 389	29%	142 724	24%	-7%
Qishloq xo'jaligi	50 303	9%	61 055	10%	21%
Qurilish sohasi	12 960	2%	18 889	3%	46%
Savdo va umumiy xizmat	38 130	7%	43 548	7%	14%
Transport va kommunikatsiya	32 808	6%	33 732	6%	3%
Moddiy va texnik ta'minotni rivojlantirish	4 213	0,8%	4 748	0,8%	13%
Uy-joy kommunal xizmati	2 324	0,4%	1 870	0,3%	-20%
Jismoniy shaxslar	177 532	33%	220 283	36%	24%
Boshqa sohalar	61 463	12%	77 154	13%	26%

Ushbu jadval ma'lumotlari O'zbekiston tijorat banklari kredit qo'yilmalarining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi va ulardagi o'zgarishlarni ko'rsatadi.

2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra tijorat banklarining jami kredit qo'yilmalari 533 121 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yil 1-yanvar holatiga kelib bu ko'rsatkich 604 002 mlrd so'mga yetgan. Demak, bir yil davomida jami kreditlar hajmi 13 foizga oshgan. Bu esa mamlakatda bank kreditlari orqali iqtisodiyotni moliyalashtirish hajmi kengayganini ko'rsatadi.

Tarmoqlar kesimida tahlil qilinganda, eng katta ulush sanoat sohasiga to'g'ri keladi. 2025-yilda sanoatga ajratilgan kreditlar 153 389 mlrd so'm yoki jami kreditlarning 29 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilda bu ko'rsatkich 142 724 mlrd so'mga tushib, ulushi 24 foizni tashkil etgan. Ya'ni sanoat sohasida kreditlar hajmi 7 foizga kamaygan. Bu holat kredit resurslarining boshqa tarmoqlarga yo'naltirilayotganini ko'rsatishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi sohasida esa ijobiy o'sish kuzatilgan. Mazkur tarmoqqa ajratilgan kreditlar 50 303 mlrd so'mdan 61 055 mlrd so'mgacha oshib, 21 foizga o'sgan. Ulushi ham 9 foizdan 10 foizga ko'tarilgan. Bu qishloq xo'jaligini qo'llab-



quvvatlash siyosati kuchayganini anglatadi. Qurilish sohasida eng yuqori o'sish kuzatilgan bo'lib, kreditlar hajmi 12 960 mlrd so'mdan 18 889 mlrd so'mga yetgan va 46 foizga oshgan. Ulushi ham 2 foizdan 3 foizga ko'tarilgan. Bu mamlakatda qurilish ishlari, infratuzilma va uy-joy loyihalarining kengaygani bilan izohlanadi. Savdo va umumiy xizmatlar sohasida kreditlar 38 130 mlrd so'mdan 43 548 mlrd so'mgacha o'sib, 14 foizga ko'paygan. Ulushi esa 7 foiz darajasida saqlanib qolgan. Transport va kommunikatsiya sohasida esa nisbatan barqaror holat kuzatilib, kreditlar 3 foizga o'sgan va ulushi 6 foiz darajasida qolgan.

Moddiy va texnik ta'minotni rivojlantirish sohasida kreditlar 13 foizga o'sgan bo'lsa-da, umumiy ulushi 0,8 foiz darajasida saqlanib qolgan. Uy-joy kommunal xizmati sohasida esa kreditlar 2 324 mlrd so'mdan 1 870 mlrd so'mga kamayib, 20 foizga qisqargan va ulushi 0,4 foizdan 0,3 foizga tushgan. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar sezilarli darajada o'sgan. 2025-yilda 177 532 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilda 220 283 mlrd so'mga yetgan va 24 foizga oshgan. Ulushi ham 33 foizdan 36 foizga ko'tarilgan. Bu banklar chakana kreditlashni faol ravishda rivojlantirayotganini ko'rsatadi. Boshqa sohalarga ajratilgan kreditlar ham 61 463 mlrd so'mdan 77 154 mlrd so'mgacha o'sib, 26 foizga oshgan va ulushi 12 foizdan 13 foizga ko'tarilgan.

Xulosa qilib aytganda, tahlil natijalariga ko'ra, tijorat banklari kredit portfelida umumiy o'sish kuzatilgan. Ayniqsa, jismoniy shaxslar, qurilish va qishloq xo'jaligi sohalariga ajratilgan kreditlar yuqori sur'atlarda oshgan. Shu bilan birga, sanoat sohasining kredit portfelidagi ulushi kamaygani kuzatiladi. Bu esa bank kredit siyosatining diversifikatsiya qilinib, kredit resurslarining turli tarmoqlar o'rtasida yanada kengroq taqsimlanayotganini ko'rsatadi.